

YEVROPA ITTIFOQIDA EKOLOGIK SOLIQLAR VA ULARNING IQTISODIY SAMARASI

Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
(DSc) mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0006-5812-6724

E-mail: sadullayev_rasul@mamunedu.uz

Annotatsiya

Maqolada Yevropa Ittifoqi davlatlarida ekologik soliqlar tizimi va ularning iqtisodiy samarasi o'rganildi. Tadqiqotda Pigou tashqi ta'sirlar nazariyasi hamda Goulder tomonidan ilgari surilgan «ikki dividendlar» gipotezasi nazariy asos sifatida qo'llanildi. Eurostat va Jahon banki statistik ma'lumotlari asosida ekologik soliq daromadlari tuzilmasi, iqtisodiyotdagi ulushi va soliq turlarining tarkibi tahlil qilindi. Tahlil natijalari ekologik soliqlar iqtisodiy faoliyatga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatmagan holda emissiyalarni kamaytirish jarayoniga hissa qo'shganini ko'rsatdi. Shvetsiya karbon solig'i tajribasi ekologik fiskal instrumentlar iqtisodiy o'sishni saqlagan holda atrof-muhit ko'rsatkichlarini yaxshilash imkonini berganini tasdiqladi. Tadqiqot natijalari ekologik soliqlarni bosqichma-bosqich joriy etish va soliq tushumlarini samarali qayta taqsimlash ijobiy iqtisodiy hamda ekologik natijalar berishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: ekologik soliq, karbon narxlash, «ikki dividendlar», Pigou solig'i, yashil fiskal islohot, emissiya savdosi tizimi.

Аннотация

В статье исследована система экологического налогообложения и её экономическая эффективность в государствах Европейского союза. В качестве теоретической основы использованы теория внешних эффектов Артура Пигу и гипотеза «двойного дивиденда», предложенная Лоуренсом Гулдером. На основе статистических данных Eurostat и Всемирного банка проведён анализ структуры экологических налоговых поступлений, их роли в экономике и распределения по видам налогов. Результаты исследования показали, что экологические налоги способствовали снижению выбросов без негативного воздействия на экономическое развитие. Опыт Швеции подтвердил, что применение углеродного налога сопровождалось улучшением экологических показателей при сохранении устойчивого экономического роста. Полученные результаты показали, что поэтапное внедрение экологических налогов и эффективное перераспределение налоговых доходов обеспечивают положительный экономический и экологический эффект.

Ключевые слова: экологический налог, углеродное ценообразование, двойной дивиденд, налог Пигу, зелёная фискальная реформа, ETS.

Abstract

The article examined the environmental taxation system and its economic effectiveness in the European Union member states. Arthur Pigou's theory of externalities and Lawrence Goulder's double dividend hypothesis were applied as the

theoretical framework. Statistical information from Eurostat and the World Bank was used to analyse the structure of environmental tax revenues, their role in the economy, and the distribution across tax categories. The findings indicated that environmental taxes contributed to emission reduction without generating negative effects on economic development. Sweden's carbon tax experience demonstrated that the implementation of carbon pricing improved environmental indicators while maintaining stable economic growth. The study showed that the gradual introduction of environmental taxes and effective revenue recycling generated positive economic and environmental outcomes.

Keywords: environmental tax, carbon pricing, double dividend, Pigouvian tax, green fiscal reform, emissions trading system.

KIRISH

Yevropa Ittifoqida ekologik soliqlar yirik fiskal instrument sifatida o'z ahamiyatini tobora oshirib bormoqda. Eurostatning 2024 yilda chop etilgan Statistical Explained hisobotiga ko'ra, 2021 yilda YI-27 a'zo davlatlari birgalikda 325.8 milliard yevro ekologik soliq daromadi to'plagan bo'lib, bu YaIMning 2.2 foiziga va umumiy soliq hamda ijtimoiy badallar tushumining 6.1 foiziga to'g'ri keladi [2]. Ushbu raqam Yevropa fiskal siyosatining iqtisodiy va ekologik maqsadlarni parallel ravishda ko'zlashini tasdiqlaydi.

Ekologik soliqlarning nazariy poydevori Arthur Pigou [1] asarlariga borib taqaladi: bozor muvozanati ifloslantiruvchi faoliyatdan kelib chiqadigan ijtimoiy zararni o'z-o'zicha hisobga olmaydi; shu zararni qoplash uchun soliq belgilash esa xususiy qararlarni ijtimoiy optimum tomon yo'naltiradi. Ushbu g'oya keyinchalik Lawrence Goulder [7] tomonidan «ikki dividendlar» gipotezasi shaklida rivojlantirildi: ekologik soliq tushumini distorsion mehnat solig'ini kamaytirish uchun sarflansa, iqtisodiyot ekologik foydadan tashqari iqtisodiy samarani ham qo'lga kiritishi mumkin.

Yevropa Ittifoqining «Yashil bitim» (European Green Deal) siyosatidagi 2050 yilga qadar iqlim neytralligiga erishish maqsadi ekologik soliqlarning rolini yanada oshirdi [5]. Karbon chegarasi to'g'irlash mexanizmi (CBAM), Energiya soliqlashtirish direktivasining qayta ko'rib chiqilishi va ETS2 ning 2027 yildan kuchga kirishi bu maydon doirasida yuz berayotgan tuzilmaviy o'zgarishlarni ifodalaydi. Shu kontekstda mavjud empirik ma'lumotlarni tizimlashtirish va amaliy xulosalar chiqarish ilmiy va siyosiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqola quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi: YI ekologik soliq tizimining nazariy-metodologik asoslarini tizimlashtirish; Eurostat va Jahon Banki tomonidan tasdiqlangan statistik ma'lumotlar asosida soliq daromadlari dinamikasi va tarkibini baholash; Shvetsiyaning karbon solig'i tajribasini iqtisodiy samaradorlik nuqtai nazaridan ko'rib chiqish; va amaliy tavsiyalar shakllantirish. Maqola kirish, adabiyotlar sharhi, metodologiya, tahlil va natijalar, xulosa va tavsiyalar hamda foydalanilgan adabiyotlar bo'limlaridan tashkil topgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ekologik soliqlarning fundamental asosi Pigou [1] tomonidan 1920 yilda «The Economics of Welfare» asarida bayon etilgan. Raqobatli bozor muvozanatida korxona marginal xususiy xarajatlarni tenglashtiradi; biroq ifloslantiruvchi ishlab chiqarishda marginal ijtimoiy xarajat - ya'ni barcha tashqi zararlarni o'z ichiga olgan to'liq xarajat - xususiy xarajatdan oshib ketadi. Bunday bozor muvaffaqiyatsizligini bartaraf etish uchun marginal tashqi salbiy ta'sirga teng miqdorda soliq belgilash zarur.

Pearce [6] bu g'oyani XX asrning oxirida iqlim iqtisodiyotiga tatbiq etib, karbon soliqlarining atmosferaga uglerod emissiyasi uchun to'g'ridan-to'g'ri narxni belgilashga imkon berishini asosladi. Fullerton va Metcalf [15] pigouvian yondashuvning amaliy cheklovlarini tahlil qilib, marginal tashqi zararni aniq o'lchash qiyinligi va soliqdan farqli iqlim siyosati instrumentlari bilan ta'sirlarning bir-biriga qo'shilib ketishi muammolarini ta'kidladi.

Stern [14] esa yoqilg'i solig'i narx egiluvchanligi haqida muhim empirik dalil taqdim etdi: 10 foizlik yoqilg'i solig'i oshishi avtomobil yoqilg'isi iste'molini uzoq muddatda 3-4 foizga kamaytiradi. Bu iqtisodiy nazariyada muhim bo'lgan xulq-atvor o'zgarishi effektining real ekanligini ko'rsatadi. Jacobs va de Mooij [16] esa optimallik tahlilini yanada chuqurlashtirdi va ikkinchi darajali distorsiyalar mavjudligida ham Pigou solig'ining samaradorligini matematik jihatdan isbotladi.

Goulder [7] ekologik soliqlar iqtisodiyotga qo'shadigan ikkita potential foyda manbaini - ekologik (birinchi dividend) va iqtisodiy (ikkinchi dividend) - nazariy jihatdan birinchi bor tizimli tahlil qildi. «Ikki dividendlar» gipotezasiga ko'ra, ekologik soliq tushumini mehnat yoki kapital ustidagi distorsion soliqlar kamaytirish uchun sarflansa, iqtisodiyot ikkala foydani bir vaqtda qo'lga kiritishi mumkin. Goulder «kuchli» va «zaif» dividend shakllarini farqlab, kuchli shaklga erishish uchun soliq tizimi va bozor sharoitlarining juda ko'p faktorlarga bog'liqligini ko'rsatdi.

Bosquet [8] 150 dan ortiq empirik tadqiqotni tahlil qilib, ekologik fiskal islohotlarning aksariyat hollarda iqtisodiy farovonlikka faqat kichik salbiy ta'sir ko'rsatishini yoki hech qanday salbiy ta'sir ko'rsatmasligini aniqladi. Andersen va Ekins [9] Skandinaviya davlatlari tajribasiga asoslangan keng qamrovli tadqiqotida esa kompyuter umumiy muvozanat modeli orqali Daniyada karbon solig'i va mehnat solig'ini kamaytirish kombinatsiyasining iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatmagan bo'lsa-da, ijtimoiy farovonlikni oshirganini aniqladi.

Ekins va Speck [12] YI doirasidagi bir qator ekologik fiskal islohotlarni tahlil qilib, tushum qayta taqsimlash usulini to'g'ri tanlash «ikki dividendlar» samaradorligini sezilarli oshirishini ko'rsatdi. Gago va boshqalar [25] esa Ispaniya misolida panel ma'lumotlar tahlili orqali bu gipotezani empirik jihatdan qo'llab-quvvatladilar: ekologik soliqlarni mehnat solig'i bilan almashtirib joriy etish bandlikni oshirgan, YaIM o'sishiga esa salbiy ta'sir ko'rsatmagan.

Metcalf [13] AQSH uchun amalga oshirilgan model hisob-kitoblarida ton CO₂ uchun 15 dollar miqdoridagi karbon solig'i 14 foizgacha emissiya kamayishiga olib kelishi mumkinligini aniqladi. Xalqaro valyuta fondi [10] fiskal monitorida dunyo miqyosida karbon soliqlarini joriy etishning eng xarajat-samarali iqlim vositasi

ekanligini ta'kidlab, optimal daraja hozirgi vaqtda ton CO₂ uchun 50-100 dollar atrofida ekanligi haqida taxminiy hisoblashlar keltirdi.

Jahon Banki [11] ning 2023 yilgi «State and Trends of Carbon Pricing» hisobotiga ko'ra, jahon miqyosida karbon soliqlari va emissiyalar savdosi tizimlari (ETS) birgalikda 2022-yilda rekord darajada - taxminan 95 milliard AQSh dollari - daromad to'pladi. Shuni ta'kidlash kerakki, YI ETS ning o'zi 2022-yilda 42 milliard dollar daromad keltirdi - bu 2017-yilga nisbatan 7 martadan ortiq o'sish hisoblanadi [11].

IPCC [19] ning 6-baholash hisobotida fiskal instrumentlar - karbon soliqlari va ETS - iqlim maqsadlariga erishishning asosiy vositalaridan biri sifatida belgilanadi va ularning iqtisodiy samaradorligi boshqa siyosat choralariга nisbatan yuqoriroqligi ta'kidlanadi. EEA [3] ning 2022-yildagi hisobotida esa YI ekologik soliqlarining 8-Muhit harakati dasturi maqsadlari bilan bog'liqligi va ularning hissasi o'lchovi bo'yicha monitoring tizimi tasvirlangan.

METODOLOGIYA

Tadqiqot ikkilamchi ma'lumotlar tahlili va qiyosiy-tavsiflovchi yondashuv asosida qurilgan. Asosiy ma'lumotlar manbasi sifatida Eurostat'ning «Environmental tax statistics» bazasi (env_ac_taxind2 va env_ac_tax identifikatorlari) tanlanib, 2024 yil yanvar holatiga ko'ra yangilanrahan ma'lumotlar ishlatilgan [2]. Soliq tarkibi, YaIMga nisbati va TSCdagi ulushiga doir ko'rsatkichlar ushbu ma'lumotlar asosida olingan. Qo'shimcha ravishda IEA [21] va Shvetsiya hukumatining rasmiy hujjatlari [20] orqali Shvetsiya karbon solig'i tarixi tasdiqlangan; Jahon Banki [11] «State and Trends» hisoboti esa global karbon narxlash ma'lumotlari uchun ishlatilgan.

Tahlil asosiy davri 2010-2023 yillarni qamrab oladi, bu esa YI ekologik fiskal siyosatining ikki muhim bosqichini - 2015 yilgi Paris bitimi oldidan va keyingi «Yashil bitim» davrini - o'z ichiga oladi. Soliq ma'lumotlari uchun asosiy o'lchov birligi YaIMning foizi tanlangan, bu esa turli o'lchamdagi iqtisodiyotlar o'rtasidagi solishtirish uchun standart metodologik yondashuv hisoblanadi [2], [4].

Tahlilning birinchi qadamida YI-27 bo'yicha 2010-2023 yillar ekologik soliq daromadlari dinamikasi va tarkibi Eurostat tasdiqlangan ma'lumotlar asosida tizimlashtirilib, tendensiyalar ko'rsatildi. Ikkinchi qadamda Shvetsiya karbon solig'ining iqtisodiy «ajralish» (decoupling) effektiga miqdoriy tavsif berildi: soliq darajasining vaqt qatori IEA va Shvetsiya Moliya vazirligi hujjatlari [20], [21] bilan tasdiqlandi, YaIM o'sishi ko'rsatkichi esa Shvetsiya statistikasi asosida indekslandi.

Uchinchi qadamda Jahon Banki [11] tomonidan yig'ilgan global karbon narxlash daromadlari tahlili orqali tushum qayta taqsimlash tendensiyalari baholandi. Tadqiqotning asosiy metodologik cheklovi shundaki, panel ma'lumotlari regressiyasi yoki umumiy muvozanat modeli o'tkazilmagan; shuning uchun maqolada taqdim etilgan bog'liqliklar kauzal aloqa sifatida emas, balki tendensiya va asosli kuzatuvlar sifatida talqin etilishi zarur.

TAHLIL VA NATIJALAR

Eurostat [2] ma'lumotlariga ko'ra, YI-27 ekologik soliq daromadlari 2010 yildagi YaIMning 2.4 foizidan 2023 yilga qadar 2.0 foizga kamaydi. Ushbu uzoq muddatli


pasayish ekologik soliqlarning YaIMdan sekinroq o‘sganligini ko‘rsatadi. 2021-yilda, COVID-19 ta‘sirining pasayishi bilan, daromad 325.8 milliard yevro yoki YaIMning 2.2 foiziga qaytdi - bu 2020-yildagi 300.2 milliard yevrodan (2.3%) 8.5 foizlik nominal o‘shish hisoblanadi [2].

2022-yilda esa energiya inqirozi va energiya baholarining o‘shishi natijasida soliq bazasi siqildi: daromad 317.2 milliard yevro (2.0% YaIM)ga tushdi [2]. 2023-yilga kelib 341.5 milliard yevro (2.0% YaIM)ga ko‘tarildi, biroq YaIM ulushi pasayishi davom etdi. EEA [3] hisobotida ushbu tendensiyaning sabablari sifatida elektr moslamalariga o‘tish, strukturaviy o‘zgarishlar va indeksatsiyaning yo‘qligi ko‘rsatildi.

1-jadval.

YI-27 ekologik soliq daromadlari: tuzilma va YaIM ulushi (2021, 2023)¹

Soliq kategoriyasi	2021-yil, mlrd yevro	2023-yil, mlrd yevro	2023-yil, YaIM ulushi, foizda	Asosiy vakillar
Energiya soliqlari	247	261	1.5	Germaniya, Italiya, Fransiya
Transport soliqlari	62	64	0.4	Daniya, Niderlandiya, Irlandiya
Ifloslanish va resurslar	17	17	0.1	Belgiya, Avstriya, Shvetsiya
JAMI	325.8	341.5	2.0	YI-27 o‘rtacha




1-rasm. YI-27 ekologik soliq daromadlari dinamikasi (2010-2023)²

¹ Manba: Eurostat (env_ac_taxind2), 2024; EEA, Share of environmental taxes in total tax revenues in Europe, 2024. https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Environmental_tax_statistics ;

² Manba: Eurostat (env_ac_taxind2), 2024; EEA (2024). https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Environmental_tax_statistics

Soliq tarkibi jihatidan energiya soliqlari barqaror ustunligini saqlamoqda. EEA [3] va Eurostat [2] ma'lumotlari bo'yicha 2023-yilda energiya soliqlari umumiy ekologik soliq daromadlarining 76 foizini tashkil etdi (ETS auksionlari daromadlari bilan birga). Transport soliqlari 19 foiz atrofida, ifloslanish va resurslar soliqlari esa 5 foizni tashkil etdi. Mazkur tuzilma o'n yildan ortiq muddat davomida barqaror bo'lib qolmoqda, bu esa YI ekologik soliq siyosatining asosiy og'irlik markazini energiya iste'molini boshqarishga qaratilganligini ko'rsatadi.




2-rasm. soliq turlari tarkibi, mlrd yevro (2010-2023)¹

Shvetsiya 1991-yilda ton CO₂ uchun SEK 250 (EUR 22) miqdorida karbon solig'ini joriy etdi - bu davr uchun dunyodagi eng yuqori karbon narxlaridan biri edi. Shvetsiya hukumatining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, soliq 2025 yilga qadar bosqichma-bosqich oshirib borildi va hozirda SEK 1510 (EUR 134) ga yetdi - jahonning eng yuqori to'g'ridan-to'g'ri karbon solig'i darajasi [20]. IEA [21] ning ta'kidlashicha, soliqni bosqichma-bosqich oshirish va har bir oshirish bilan birga boshqa soliqlarda imtiyozlar berish yondashuvi uning siyosiy maqbulligini sezilarli oshirdi.


Earth.org [22] tahlilida quyidagi muhim kuzatuv keltirilgan: Shvetsiyaning YaIM 1990 va 2019-yillar oralig'ida real hisobda 50 foizdan ortiq o'sdi, biroq karbon intensivligi keskin kamaydi. Iqtisodchi Gilbert Metcalf'ning 2019-yilgi tadqiqoti Shvetsiyaning karbon solig'ini joriy etganidan beri YaIM o'sishiga hech qanday salbiy ta'sir ko'rsatmagan, aksincha, soliqning YaIM o'sishiga biroz ijobiy ta'siri bo'lganligi ehtimoli yuqori ekanligini aniqladi [22]. OECD [24] ning samarali karbon stavkalari hisob-kitobiga ko'ra, 2023-yilda Shvetsiyada GHG emissiyalarining taxminan 70 foizi ijobiy «sof samarali karbon stavkasi»ga ega bo'lib, 67 foizi ton CO₂ uchun EUR 60 dan yuqori narxga ega edi.

¹ Manba: Eurostat (env_ac_taxind2), 2024; EEA (2024). https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Environmental_tax_statistics

Ushbu kuzatuvlar «ikki dividendlar» gipotezasining zaif shaklini amalda tasdiqlaydi: karbon solig‘i tushumini mehnat solig‘ini kamaytirish uchun sarflaganda, Shvetsiya ham ekologik ham iqtisodiy foyda qo‘lga kiritdi [7], [9]. Karbon solig‘ining bosqichma-bosqich oshirilishi esa xususiylar sektordagi uzoq muddatli yashil investitsiyalar uchun muhim bashorat muhitini shakllantirdi.



2-rasm. Shvetsiya karbon solig‘i tarixi va iqtisodiy «ajralish» (decoupling) effekti¹



2-rasm. Shvetsiya iqtisodiy «ajralish» (decoupling) effekti²

¹ Manba: IEA (2024); Government.se; Earth.org (2022); OECD, Key findings for carbon pricing in Sweden (2023). <https://www.government.se/government-policy/taxes-and-tariffs/swedens-carbon-tax/>

² Manba: IEA (2024); Government.se; Earth.org (2022); OECD, Key findings for carbon pricing in Sweden (2023). <https://www.government.se/government-policy/taxes-and-tariffs/swedens-carbon-tax/>

Jahon Banki [11] ning 2023-yilgi hisobotiga ko'ra, global karbon narxlash daromadlari (ETS va soliqlar birligida) 2022-yilda rekord darajaga yetdi: taxminan 95 milliard AQSh dollari. Ushbu daromadlarning o'rtacha 46 foizi muayyan ekologik dasturlarga va yashil infratuzilmaga, 29 foizi umumiy byudjetga, 10 foizi to'g'ridan-to'g'ri transferlarga va 9 foizi soliq imtiyozlariga yo'naltirildi [11]. YI ETS daromadlari 2022-yilda 42 milliard dollarga yetdi - 2017 yilga nisbatan 7 barobardan ortiq o'sish [11].

YI a'zo davlatlarida qayta taqsimlash amaliyoti xilma-xil. Germaniya va Daniya mehnat solig'ini kamaytirish kombinatsiyasini qo'llagan: bu Goulder [7] zaif ikki dividend shaklining amaliy namunasi. Finlyandiya va Shvetsiya esa tushumning bir qismini «yashil fond»lar orqali qayta tiklanadigan energiya va energiya samaradorligi loyihalariga yo'naltirdi. Eurostat [21] ma'lumotlari bo'yicha 2023-yilda YI a'zo davlatlarida emissiya savdosi kvotalari auksionidan davlat byudjetlari uchun katta miqdorda qo'shimcha daromad kelib tushdi - bu tendensiya ETS4 bosqichida (2021-2030) auksion ulushining oshishi bilan davom etmoqda.

Andersen va Ekins [9] tadqiqoti Skandinaviya mamlakatlarida tushum qayta taqsimlash mexanizmining iqtisodiyotga umumiy ta'sirini tahlil qilib, to'g'ri yo'naltirilgan qayta taqsimlashning iqtisodiy samaradorlik yo'qotishini 25-30 foizga kamaytirishni ko'rsatdi. Kreiner va boshqalar [17] esa yashil texnologiyalar uchun patent topshirish va ekologik soliq darajasi o'rtasidagi ijobiy bog'liqlikni aniqlab, uchinchi potensial dividend - innovatsiyaviy rag'batlantirishni - ko'rsatdi.

Ekologik soliqlarning umumiy soliq yukidagi ulushi so'nggi o'n yilda pasayib kelmoqda. EEA [3] hisobotiga ko'ra, ushbu ulush YI darajasida 2010-yildagi 6.3 foizdan 2023-yilga kelib 5.1 foizga tushdi - bu 2010-yildan buyon eng past daraja. Ushbu pasayish iqtisodiy tuzilmaviy o'zgarishlar, elektrlashtirishning kengayishi va soliq bazasining torayishi, hamda bir qator mamlakatlarda o'n yillar davomida indeksatsiya o'tkazilmaganligi bilan izohlanadi. Germaniyada ifloslanish soliqlari umuman mavjud emasligi, bir qator mamlakatlarda esa energiya soliqlari real (inflyatsiyani hisobga olgan) kamayganligi ushbu tendensiyaning asosiy omillaridan biridir [2].

EEA [3] hisobotida ta'kidlanganidek, energiya samaradorligining oshishi va elektr uskunalarga o'tish bir tomondan ekologik samarani ta'minlasa, boshqa tomondan ayni ushbu jarayonlar yoqilg'i va energiya soliqlarining bazasini toraytirmoqda - bu soliq siyosati loyihasining strukturaviy paradoksdir. Energiya soliqlashtirish direktivasining (ETD) taklif etilgan qayta ko'rib chiqilishi ushbu muammoni elektrlashtirishni rag'batlantirish, fossil yoqilg'i subvensiyalarini bekor qilish va soliqlarni karbonsizlashtirish maqsadlari bilan muvofiqlashtirish orqali hal qilishni ko'zlaydi [5].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ekologik soliqlar tizimi iqtisodiy va ekologik siyosatning muhim fiskal instrumenti sifatida shakllanganini ko'rsatdi. Nazariy tahlil Pigou tashqi salbiy ta'sirlar nazariyasi hamda Goulder tomonidan ilgari surilgan «ikki dividendlar» gipotezasi ekologik soliqlarni iqtisodiy tartibga solish

vositasi sifatida qo'llash uchun metodologik asos yaratganini tasdiqladi. Empirik ma'lumotlar ekologik soliqlar atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan faoliyat uchun iqtisodiy rag'batlarni o'zgartirish orqali emissiyalarni kamaytirish jarayoniga ta'sir ko'rsatganini ko'rsatdi.

Eurostat va xalqaro tashkilotlar ma'lumotlari asosida o'tkazilgan tahlil ekologik soliq daromadlari Yevropa fiskal tizimida barqaror manba sifatida shakllanganini tasdiqladi. Soliq tuzilmasida energiya soliqlari ustunligi energiya iste'moli va karbon intensivligini tartibga solishga qaratilgan fiskal strategiyani ifodalaydi. Ekologik soliqlar ishlab chiqarish va iste'mol qarorlariga narx signallari orqali ta'sir ko'rsatgan. Bu jarayon resurslardan samarali foydalanish hamda energiya samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Shvetsiya karbon solig'i tajribasi ekologik soliqlar uzoq muddatli fiskal instrument sifatida qo'llanishi mumkinligini tasdiqladi. Karbon solig'i stavkalarining bosqichma-bosqich oshirilishi iqtisodiy subyektlar uchun prognoz qilinadigan institutsional muhit yaratgan. Mazkur yondashuv energiya samaradorligi texnologiyalariga investitsiyalarni rag'batlantirgan hamda karbon intensivligini pasaytirgan. Empirik kuzatuvlar iqtisodiy o'sish va emissiyalar o'rtasida ajralish effekti yuzaga kelganini ko'rsatdi.

Ekologik fiskal islohotlar samaradorligi soliq tushumlarini qayta taqsimlash mexanizmlariga bog'liqligi aniqlangan. Ekologik soliqlardan tushgan daromadlarni mehnat soliqlarini kamaytirish, energiya samaradorligi dasturlari va yashil texnologiyalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirish iqtisodiy samaradorlik yo'qotishlarini kamaytirgan. Mazkur mexanizm «ikki dividendlar» gipotezasining zaif shaklini empirik jihatdan tasdiqlagan.

Tadqiqot natijalari ekologik soliqlarni joriy etishda bir qator institutsional yondashuvlarni tavsiya etadi. Birinchi, ekologik soliqlarni bosqichma-bosqich joriy etish va soliq stavkalarining uzoq muddatli dinamikasini oldindan belgilash iqtisodiy subyektlar uchun barqaror prognoz muhitini shakllantiradi. Ikkinchi, soliq tushumlarini ijtimoiy kompensatsiya mexanizmlari, energiya samaradorligi dasturlari va yashil innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirish fiskal instrumentlarning iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Uchinchi, ekologik soliqlarni emissiya savdosi tizimlari va boshqa iqlim siyosati instrumentlari bilan integratsiya qilish karbon narxlash tizimining kompleksligini ta'minlaydi.

Yevropa Ittifoqi tajribasi ekologik soliqlar iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni uyg'unlashtirishga xizmat qiluvchi samarali fiskal mexanizm ekanini ko'rsatdi. Mazkur yondashuv fiskal siyosatda narx signallari orqali resurslardan foydalanishni tartibga solish imkonini yaratdi. Ekologik soliqlarni institutsional jihatdan to'g'ri loyihalash va tushumlarni samarali qayta taqsimlash ekologik fiskal siyosatning barqaror natijalarini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Pigou, A.C. (1920). The Economics of Welfare. Macmillan, London.
<https://archive.org/details/economicsofwelfa00pigorich>

2. Eurostat (2024). Environmental tax statistics. Statistics Explained (env_ac_taxind2). https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Environmental_tax_statistics
3. European Environment Agency - EEA (2024). Share of environmental taxes in total tax revenues in Europe. EEA Indicators. <https://www.eea.europa.eu/en/analysis/indicators/share-of-environmental-taxes-in>
4. OECD (2022). Environmental tax revenues. OECD Statistics Database (ERTR). <https://stats.oecd.org/Index.aspx?DataSetCode=ERTR>
5. European Commission (2021). European Green Deal: Delivering on our targets. Communication COM(2021) 390. https://ec.europa.eu/info/strategy/priorities-2019-2024/european-green-deal_en
6. Pearce, D. (1991). The Role of Carbon Taxes in Adjusting to Global Warming. *Economic Journal*, 101(407), 938-948. <https://www.jstor.org/stable/2233863>
7. Goulder, L.H. (1995). Environmental taxation and the double dividend: A reader's guide. *International Tax and Public Finance*, 2(2), 157-183. <https://link.springer.com/article/10.1007/BF00877495>
8. Bosquet, B. (2000). Environmental tax reform: does it work? A survey of empirical evidence. *Ecological Economics*, 34(1), 19-32. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0921800999001517>
9. Andersen, M.S. & Ekins, P. (eds.) (2009). *Carbon-Energy Taxation: Lessons from Europe*. Oxford University Press. <https://global.oup.com/academic/product/carbon-energy-taxation-9780199570683>
10. IMF (2019). *Fiscal Monitor: How to Mitigate Climate Change*. October 2019. <https://www.imf.org/en/Publications/FM/Issues/2019/09/12/fiscal-monitor-october-2019>
11. World Bank (2023). *State and Trends of Carbon Pricing 2023*. Washington, DC. <https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/58f2a409-9bb7-4ee6-899d-be47835c838f>
12. Ekins, P. & Speck, S. (eds.) (2011). *Environmental Tax Reform (ETR): A Policy for Green Growth*. Oxford University Press. <https://global.oup.com/academic/product/environmental-tax-reform-etr-9780199584505>
13. Metcalf, G.E. (2009). Designing a Carbon Tax to Reduce U.S. Greenhouse Gas Emissions. *Review of Environmental Economics and Policy*, 3(1), 63-83. <https://doi.org/10.1093/reep/ren015>
14. Sterner, T. (2007). Fuel taxes: An important instrument for climate policy. *Energy Policy*, 35(6), 3194-3202. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0301421506003818>
15. Fullerton, D. & Metcalf, G.E. (2001). Environmental Controls, Scarcity Rents, and Pre-existing Distortions. *Journal of Public Economics*, 80(2), 249-267. [https://doi.org/10.1016/S0047-2727\(00\)00087-6](https://doi.org/10.1016/S0047-2727(00)00087-6)

16. Jacobs, B. & de Mooij, R.A. (2015). Pigou meets Mirrlees: On the irrelevance of tax distortions for the second-best Pigouvian tax. *Journal of Environmental Economics and Management*, 71, 90-108. <https://doi.org/10.1016/j.jeem.2015.01.002>
17. Kreiser, L. et al. (eds.) (2012). *Carbon Pricing, Growth and the Environment*. Edward Elgar Publishing. <https://www.e-elgar.com/shop/gbp/carbon-pricing-growth-and-the-environment-9781781001271.html>
18. Eurostat (2024). Climate-related taxes. *Statistics Explained*. https://ec.europa.eu/eurostat/statistics-explained/index.php?title=Climate-related_taxes
19. IPCC (2022). *Climate Change 2022: Mitigation of Climate Change. Contribution of Working Group III, Sixth Assessment Report*. <https://www.ipcc.ch/report/ar6/wg3/>
20. Government of Sweden (2024). Sweden's carbon tax. Ministry of Finance. <https://www.government.se/government-policy/taxes-and-tariffs/swedens-carbon-tax/>
21. IEA (2024). Government Bill 1991/92 - Sweden carbon tax. IEA Policies Database. <https://www.iea.org/policies/12725-sweden-carbon-tax>
22. Earth.org (2022). Carbon Pricing and Carbon Tax in Sweden. <https://earth.org/carbon-tax-in-sweden/>
23. Eurostat (2024). Environmental tax revenue shows slight increase in 2023 (Press release, July 2025). <https://ec.europa.eu/eurostat/en/web/products-eurostat-news/w/ddn-20250722-1>
24. OECD (2023). Key findings for carbon pricing in Sweden. OECD Tax Policy. <https://www.oecd.org/tax/tax-policy/carbon-pricing-sweden.pdf>
25. Gago, A. et al. (2019). Environmental fiscal reforms and the double dividend: New evidence from Spain. *Energy Policy*, 131, 68-85. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0301421519302010>



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, fevral, 2-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlaro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**